

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

«Himoyaga ruxsat»
kafedra mudiri
prof. A.X. Nishanov

“__” _____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “ARIGTS SAVDO” MCHJ web saytini yaratish

Bitiruvchi	_____	Rizayev D.M.
Rahbar	_____	Jo'rayev X.Z.
Taqrizchi	_____	Begimov O'.I.
HFX maslahatchi	_____	Qodirov F.

Toshkent 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....		6
I BOB.	TAHLILIIY QISM.....	9
1.1.	Axborot tizimlari va web saytlarni yaratish.....	9
1.2.	Web saytlarni yaratish texnologiyalari.....	14
1.3.	Masalaning qo'yilishi.....	30
II BOB.	ASOSIY QISM.....	32
2.1.	JOOMLA kontentlarni boshqarish tizimi.....	32
2.2.	“ARIGTS SAVDO” MCHJ web saytining ma'lumotlar bazasi.....	36
2.3.	“ARIGTS SAVDO” MCHJ web sayti foydalanuvchilari va administratoriga yo'riqnoma.....	39
III BOB.	HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	47
3.1.	Gipodinamiya (monotoniya) va ularning inson salomatligiga ta'siri.....	47
3.2.	Ishlab chiqarish muhitida mikroiklimni inson salomatligiga ta'siri.....	50
XULOSA.....		56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....		57
ILOVA.....		58

Mazmunnoma

Bitiruv malakaviy ishi “ARIGTS SAVDO” MCHJ web saytini yaratishga bag’ishlangan. Web saytda “ARIGTS SAVDO” firmasi faoliyati haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu sayt PHP dasturlash tili va HTML tili va CSS, JavaScript texnologiyalari asosida yaratildi.

Аннотация

Это выпускной квалификационной работы бакалавра направлены на создание веб-сайта ООО «ARIGTS SAVDO», на этом сайте мы можем получить важные и полную информацию о компании ООО «ARIGTS SAVDO». Этот сайт был создан на язык программирования PHP, JavaScript, HTML и CSS технологий.

Summary

This final qualifying work of bachelor devoted to create web site of ООО “ARIGTS SAVDO”, in this site we can get important and full information about ООО “ARIGTS SAVDO”. This site was created by PHP, JavaScript programming language, HTML and CSS technology.

KIRISH

Respublikamizdagi barcha sohalarda ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda ularni rivojlantirish maqsadida juda ko'p salmoqli ishlar qilinmoqda va o'z navbatida bu sohadagi amlga oshiriladigan barcha ishlarning me'yoriy – huquqiy bazasi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2012 yil 21 – mart kuni “Zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish va rivojlantirish chora tadbirlar to'g'risida” gi qarori imzolangan. Bunga asosan axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirishning asosiy bosqichi hisoblanayotgan axborot tizimlarini joriy etish bilan birgalikda, ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga oid vazifalarning ijrosi bo'yicha aniq chora – tadbirlar belgilab olindi.

O'z navbatida shuni hisobga olish lozimki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha birinchi qadam bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Kompyuterlahtirishni va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy qilish va rivojlantirish” haqidagi farmoni hisoblanadi. Ushbu farmonda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini respublikamizdagi barcha sohalarga joriy qilish va uni rivojlantirish asoslari belgilab qo'yildi. O'z navbatida ushbu farmonni bajarilishi yuzasidan bir nechta me'yoriy hujjatlar, jumladan 2004 yil 29 aprelda “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yilda №117 – sonli “Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va yanada rivojlantirish” to'g'risidagi qarori qabul qilingan.

Hozirgi kunda axborot – kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarda o'z o'rnini egallamoqda va barcha sohalarda rivojlanib kelmoqda. Jumladan, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari davlat organlarida, turli fuqorolik institutlarida, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, fan va ta'limda, madaniyat va insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega va ushbu sohalarning rivojlanishida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Sohalarning barcha yo'nalishlariga axborot texnologiyalarini tadbiq qilish ham hozirgi kunning talabi va muammosidir. Prezidentimiz takidlaganlaridek, "XXI –asr axborot asri" dir. Bu borada, Prezidentimiz I.A.Karimov 2011 yil 11 yanvarda tarmoqlararo muvofiqlashtirish kengashining majlisida so'zlagan nutqida, "milliy axborot tizimini shakllantirish, internet tizimiga va boshqa global axborot tizimlariga va texnologiyalariga, mamlakat salohiyatini XXI asrda o'sishini ta'minlovchi omil sifatida qarash lozimligini aytib o'tdilar. Bundan shuni takidlash lozimki, davlatimizdagi barcha sohalarda axborot texnologiyalarini qo'llash, samarali va qulay bo'lgan keng qamrovli axborot tizimlarini ishlab chiqish va ularni tatbiq qilish sezilarli darajada mamlakat ijtimoiy hayoti va iqtisodi uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ushbu yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Namangan va Navoiy viloyatlari hokimliklari rahbariyatining tizimda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish hamda faoliyatini yo'lga qo'yishda interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish yuzasidan hisobotlari tinglandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati qarorlarining viloyat, shahar va tuman hokimliklari, mahalliy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida bajarilishi holati muhokama qilindi. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli vazifalar belgilandi.

Yana shuni aytish joizki, majlisda yuqorida takidlab o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21 martda qabul qilingan "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan mahalliy dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish hamda tijorat faoliyati va tadbirkorlikda zamonaviy axborot texnologiyalaridan

foydalanishni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha tegishli hujjatlar loyihalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, internet tarmog'ida milliy segmentni boyitish va undan foydalanish samaradorligini oshirish, axborot resurslari va interaktiv xizmatlarni ko'paytirish va rivojlantirish maqsadida internet tarmog'idan foydalanish samaradorligini baholash va rivojlantirish bo'yicha Respublika uslubiy komissiyasi tarkibi hamda uning nizomi tasdiqlandi.

Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyat hayotida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni katta bo'lib, turli axborot resurslari, interaktiv xizmatlardan foydalanish barcha talabalar, o'quvchilar, xodimlar, qolaversa barcha jamiyatimiz aholisining bilim saviyasini va soha bo'yicha ish samaradorligini oshiradi. O'z navbatida AKT ning ta'lim sohasidagi tatbiqini e'tiborga oladigan bo'lsak, masofaviy o'qitish va shunga mos interaktiv xizmatlarni yaratish foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi. Ayniqsa turli muassasalar uchun yaratiladigan web saytlar ushbu tashkilotlar haqida hohlagan vaqtda internet orqali ma'lumot olishni va o'z navbatida ma'lumotlarni boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Mening bitiruv malakaviy ishim 3 ta qismdan iborat bo'lib, birinchi qism asosan web texnologiyalar va modulli web saytlarni yaratish asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Ikkinchi qismda esa "ARIGTS SAVDO" MCHJ web sayti va undan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma keltirilgan. Uchinchi qismda hayot faoliyati havfsizligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

1 – BOB. TAHLILIIY QISM

1.1. Axborot tizimlari va web saytlarni yaratish

Tizim tushunchasi juda ham keng tarqalgan termin bo`lib, juda ham ko`p ma'noni anglatadi. Ko`p xollarda texnika vositalari va dasturlari yigindisiga "TIZIM" deb ataladi. Tizim tushunchasiga "axborot" so`zini ko`shsak u xolda "tizimning" yaratilish maqsadi va ishlash prinsipi tushuniladi. Axborot tizimi foydalanuvchilarga istalgan muhitdagi axborotlarni saqlash, qayta ishlash, qidirish imkonini yaratadi. Axborot tizimi deb oldinga qo`yilgan maqsadga erishish uchun axborotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish metodlari va vositalari yigindisiga aytiladi.

Har qanday axborot tizimining ishlash jarayonini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin. Axborot tizimlari quyidagi xossalar bilan xarakterlanadi: har qanday axborot tizimi, tizimni tashkil etishning umumiy prinsipi asosida taxlil qilinadi va boshqariladi. Axborot tizimi dinamik ko`rinishga ega bo`lib, rivojlanuvchi tizim hisoblanadi. Axborot tizimining mahsuloti ham axborot hisoblanadi. Axborot tizimini odam-komp'yuter tizimi ko`rinishida tasavvur qilish lozim. Axborot tizimlarini hayotda qo`llab qanday natijalar olish mumkin.

Axborot tizimi jamiyat va qar bir tashkilot uchun quyidagilarni bajarishi lozim: Axborot tizimining tuzilmasi va uning qo`llanilish maqsadi, jamiyat va korxonada oldida turgan vazifa bilan to`gri kelishi kerak.

Masalan: tijorat firmasida - foydali biznes, davlat korxonasida ijtimoiy va siyosiy vazifalarni bajarishi kerak. Axborot tizimi inson tomonidan boshqarilishi va ijtimoiy etika prinsiplari asosida foyda keltirishi kerak. To`gri, kafolatli va o`z vaqtida axborotlarni mijoz yoki tizimlarga yetkazishi lozim.

Axborotlashtirish - yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo`lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni;

axborot resursi - axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi;

axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori - axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi - qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

axborot texnologiyasi - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar;

axborot tizimi - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Axborot tizimini yaratish

Axborot tizimini yaratish, tashkilotning boshqaruv tuzilmasini taxlil qilishdan boshlanadi. Boshqarish deganda quyidagi vazifalarni amalga oshirish funksiyasi bilan, qo'yilgan maqsadga erishish tushuniladi:

- Tashkillashtirish - normativ hujjatlar kompleksi va tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish; shtat jadvali, bo'limlar, laboratoriyalar va x.k.
- Hisobga olish olish - bu funksiya firma yoki tashkilot ko'rsatkichlarining metod va formalarini ishlab chiqadi. Masalan: buxgalteriya hisoboti, moliyaviy hisob-kitob, boshqaruv hisoboti va boshqalar.
- Taxlil (analiz) - rejalashtirilgan vazifalarni qay darajada bajarilganligini aniqlaydi.

Axborot resurslari va axborot tizimlarining huquqiy rejimi quyidagilarni belgilovchi normalar bilan aniqlanadi:

- axborotni hujjatlashtirish, axborot resurslarini shakllantirish va axborot tizimlarini yaratish tartibini;
- axborot resurslariga va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqini;

- axborot resurslarining ulardan erkin foydalanish darajasi bo'yicha toifasini;
- axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish tartibini;
- axborot tizimlarining tarmoqlararo ulanishi tartibini.

Sistema - bu o'zaro boglangan va o'zaro munosabatda bo'lgan elementlarni shunday yigindisiki, unda ular o'rtasidagi ichki aloqalar quvvati tashqi aloqalar quvvatidan katta va xususiyatidan farqli yangi mujassamlangan xususiyatga ega bo'lgan, ma'lum maqsadga yunaltirilgan majmuadir. Element - sistemaning uzviy qismi bo'lib, u tashqi xususiyatlari nuqtai nazaridan bo'linmaydigan mustaqil ob'ekt deb tushuniladi.

"Sistemotexnika" - boshqaruvchi va boshqariluvchi qismlarni o'z ichiga oladigan katta texnik sistemalar yaratilish, rivojlantirish va amalda qo'llashning umumiy qonuniyatlari haqidagi texnik fani. Sistemotexnika fani - avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini loyixalash, rivojlantirish va amalda qo'llash tartibi. Sistemotexnika usuli - sistemali yondashuv bo'lib ob'ektni barcha ichki va tashqi aloqalarini hisobga olgan holda uning mohiyatini o'rganib chiqish, o'tmishi, xozirgi davri kelajagini hisobga olgan holda uni rivojlanishini o'rganib chiqishni o'z ichiga oladi. Sistemotexnika vazifalari - turli tipdagi ABT uchun samaradorlikni baxolash kriteriyalarini ishlab chiqarish, ularni yaratish rivojlantirish va ekspluatatsiya qilish usullarini ishlab chiqaradi.

ABT tizimidagi ijtimoiy-iqtisodiy asoslarning nazariy negizi bo'lib, "operatsiyalar nazariyasi" yoki "opratsiyalarni tekshirish" deb nomlanuvchi ilmiy fan hisoblanadi. "Operatsiyalarni tekshirish" - milliy yo'nalish bo'lib mavjud bo'lgan sistema - odamlar mashinalar materiallar moliya tizimlarini boshqarish bilan bogliqdir. Operatsiyalar nazariyasi fani - masalalarni yechimini topishga qaratilgan maqsadga muvofiq chora va tadbirlarni o'rganib chiqishidir. ABT nazariyalarini ijtimoiy-iqtisodiy asoslari muammolari qatoriga tashkiliy sistemalar bilan boshqarishda qaror qabul qilish prinsiplari va uslublari ishlab chiqarish masalalarini, shaxslararo munosabatlar va ularni boshqaruv jarayoni samaradorligi bilan bog'ikligini o'rganish, hamda ABTni qonuniy ta'minotini ishlab chiqish

savollarini ham kiritish zarur. Shunday qilib, muhandis-sistemotexnik fan va texnikada keng doiradagi bilim va dunyoqarashga ega bo'lishi, ABSni ishlab chiqishdagi muammolar va qiyinchiliklarni o'ziga xosligini tushunib yetishi, ASUni loyixalashda vujudga keladigan turli xil masalalarni yechishni bilishi kerak. Sistemaning qo'shimcha xususiyatlari: Butunlik - biron narsa alohida bir butun bo'lmog'i uchun birinchidan uning uzviy qismlari orasidagi aloqalari shu qismlar ko'rilayotgan butunlikka tegishli bo'lmagan boshqa bo'limlar bilan aloqalaridan kuchlirok bo'lmog'i lozim. Ikkinchidan esa ko'rilayotgan butunlikni har bir bo'limdagi elementlar o'rtasidagi aloqalar bo'limlararo aloqalardan kuchliroq bo'lishi lozim. Butunlikning bu xususiyati uni bo'limlarga bo'lish, ajratish imkonini beradi. Tashqi muxit bilan bog'lanishlik.

Agar sanoat korxonasini sistema deb olsak, u uchun tashqi muxit sifatida xom ashyo, extiyot qismlar, energiya ta'minlovchilar, korxonaning maxsulotlarini iste'molchilari bo'ladi. Agar korxonada ishlariga ob – havo ta'sir etadigan bo'lsa, unda korxonada uchun tashqi muxit ob – havo bo'ladi. Yoki teskari hol, ya'ni korxonada o'z faoliyati bilan tabiatga ta'sir ko'rsatsa, (masalan, anhor, ko'l, havoni ifloslantirsa) unda tabiat sistemasi uchun korxonada tashqi muxit sifatida ko'riladi. Sistemani taxlil qilish jarayonida uni bir necha tarkibiy qismlarga, ya'ni quyi sistemalarga bo'lish mumkin. quyi sistema - bu sistemadan ma'lum qoidaga binoan ajratilgan, tabiati ixtiyoriy, o'zaro boglangan elementlarni bir qism to'plamidir.

Demak, har qanday sistema quyi sistemadan iborat bo'lib, ularni har birini mustaqil sistema deb qarash mumkin. Agar sistema kirish va chiqish yo'llariga ega bo'lsa, ya'ni sistemalarni ma'lum vaktida modda, energiya, axborot kirgizish va chiqarish imkoniyatlari mavjud bo'lsa, bu tizimga tarkibiy ob'ekt sifatida qaraladi va bu sistemaga dinamik sistema deb qaraladi. Sistemalarni murakkab va sodda sistemalarga bo'lish mumkin: sistemani ko'p o'lchovligi (o'zgaruvchilar soni ko'pligi); sistema elementlarini o'zaro bog'lanishi ko'pligi (bir xil yoki bir xil satxdagi elementlarda o'zaro bog'lanish); elementlarning tabiati xilma - xilligi; sistema tarkibi va xosiyatlari o'zgarishining ko'pligi(sistemaning tuzilishi, tarkibi va aloqalarning o'zgaruvchanligi); ko'p mezonlik(quyi sistemalar uchun maxalliy

mezonlar va butun sistema uchun umumiy mezon, ularning o`zaro ziddiyatlari); ilmiy nuqtai nazaridan ko`p bog`lanishligi(sistemni turli darajada tasvirlash zarurligi); sistema tuzilishini, uni tashkil qilish usullarini, elementlar o`rtasidagi o`zaro aloqalarni shakllarining xilma- xilligi. sistema tarkibi va xususiyatlari o`zgarishining ko`pligi(sistemaning tuzilishi, tarkibi va aloqalarning o`zgaruvchanligi); ko`p mezonlik(quyi sistemalar uchun maxalliy mezonlar va butun sistema uchun umumiy mezon, ularning o`zaro ziddiyatlari); ilmiy nuqtai nazaridan ko`p bog`lanishligi(sistemni turli darajada tasvirlash zarurligi); sistema tuzilishini, uni tashkil qilish usullarini, elementlar o`rtasidagi o`zaro aloqalarni shakllarining xilma - xilligi.

1.2. Web saytlarni yaratish texnologiyalari

Web saytlar hozirgi kunda eng foydalaniladigan axborot kichik axborot tizimlari hisoblanida. Ushbu tizimlardan foydalanish ancha qulay bo'lganligi va o'z navbatida bu tizimlarni boshqarish oson bo'lganligi sababligi bunday turdagi tizimlarga ya'ni web saytlarga talab kuchayib bormoqda. Yana shuni aytish joizki, har bir muassasa o'zining rasmiy web saytiga ega bo'lishi lozim. Bu holat davlatimiz hukumati tomonidan qonuniy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan.

Hozirgi kunda web saytlarni yaratishning turli xil texnologiyalari mavjud bo'lib, asosan quyidagilar yordamida turli tipdagi web saytlar yaratish mumkin.

- HTML (**H**yper**T**ext **T**ransfer **P**rotocol) tili
- CSS (**C**ascading **S**tyle **S**heet)
- Dasturlash tillari (PHP, JAVA, ASP.NET va h.k.lar)
 - PHP (**P**ersonal **H**ome **P**age)
 - ASP.NET (**A**ctive **S**erver **P**ages [Net Framework])
- Kontentlarni boshqarish tizimlari (CMS-Content Management System)
 - JOOMLA
 - Drupal
 - WordPress
 - Code Igniter
 - YII Framework
- Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari
 - MySQL mbbt
 - SQL Server, SQLite
 - Oracle mbbt
- Java Script tili va JQuery texnologiyasi va h.k.lar

Yuqorida keltirilgan web dasturlash tillari va texnologiyalari sifatli va qulay web saytlarni yaratish uchun imkoniyat yaratadi. Asosan saytlar ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin

- *Statik ko'rinishdagi web saytlar*

- *Dinamik ko'rinishdagi web saytlar*

Statik ko'rinishdagi web saytlar – bu web sahifa ma'lumotlarini qo'lda o'zgartirish va qo'shish orqali (html kodni o'zgartirish) ishlaydigan saytlar bo'lib, bunday turdagi saytlar ma'lumotlarini administrator paneli orqali boshqarish imkoniyati yo'q

Dinamik ko'rinishdagi web saytlar – bu web sahifa ma'lumotlarini ma'lumotlar bazasiga avtomatik yozish va ushbu ma'lumotlarni web dasturlash tillari (PHP, JAVA) yordamida dinamik boshqarish imkoniyatini beradigan saytlar bo'lib, bunday turdagi saytlar ma'lumotlarini administrator paneli orqali boshqarish imkoniyati mavjud.

HTML (HyperText Transfer Protocol) tili

HTML¹

HTML (inglizcha **HyperText Markup Language**) – gipermatnlarni belgilash tili. Butun dunyo to'ridagi dokumentlarni uchun standartlashtirilgan til.

HTML tarixi

HTML tili 1991-1992 – yillarda Berners-Lee tomonidan ishlab chiqarilgan. HTML tili texnik va fan ma'lumotlarni odamlarga yetkazish maqsadida o'ylab chiqilgandir. HTML hozirgi kungacha bir qancha versiyalari chiqarilgan bo'lib, ulardan oxirgisi HTML 4.01 dir.²

1.6 – jadval. HTML versiyalari

RFC 1866 - HTML 2.0	22 – sentabr 1995 – yil
HTML 3.2	14 – yanvar 1997 – yil
HTML 4.0	18 – dekabr 1997 - yil
HTML 4.01	24 – dekabr 1999 – yil
HTML 5	ishlanmoqda

HTML tili tuzilishi

HTML tili bu sahifaning ko'rinishini belgilaydigan til bo'lib, bu belgilashni amalgam oshirish uchun elementlar – teglardan foydalaniladi.

¹ Шапошников И. Web-сайт своими руками: Основы языка HTML.

² <http://ru.wikipedia.org/wiki/HTML> web sahifasi.

HTML da teglar katta (<) va kichik (>) belgilari ichiga yoziladi.

<teg nomi>

O'z navbatida teglar ikki turga ajratiladi.

- Ochib yopiladigan teglar
- Yakka holda qo'llaniladigan teglar

Ochib yopiladigan teglarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

, <i>, , ...

Yakka holda qo'llaniladigan teglar:

, <meta>,

Teglarda nomidan tashqari yana atributlari ham mavjud. Yani shu tegga tegishli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni o'zida saqlaydigan huddi o'zgaruvchilarga o'xshagan qiymatlardir. Musol uchun:

Bu yerda yana bitta muammo chiqishi aniq. Agar sahifaning ichida >, < kabi belgilarni qo'llash zarurati paydo bo'lsachi? Buni ham oldi olingandir. Quyidagi jadvalda HTML dagi belgilashlarni ayrimlarini ko'rishingiz mumkin yoki &#NNNN ko'rinishida UNICODE belgilar jadvalidan foydalangan holda hohlagan belgini chiqarishingiz mumkin, bunda NNNN unicode belgilar jadvalidagi belgi kodi.

1.7 – jadval. HTML dagi ayrim belgilar qo'llanishi nomlari.

quot	“	copy	©	pi	π
amp	&	reg	®	trade	™
apos	‘	para	¶	larr	←
Lt	<	alpha	α	sum	Σ
Gt	>	beta	β	ne	\neq
nbsp	_ (bo'shliq)	gamma	γ	asymp	\approx

Qo'llash: "

HTML (**H**yper**T**ext **T**ransfer **P**rotocol) tili bu gipermatnlarni belgilash tili hisoblanib, ushbu tilning eng asosiy tashkil etuvchilari bu *tag* lardir. "tag" so'zining lug'aviy man'nosi yorliq deganidir. HTML tag bu HTML kodlardir ular bizning web sahifamizni web browserlarda ochilishiga sabab bo'luvchi eng muhim elementlardir. HTML tag birinchi darsda ta'kidlab o'tganimdek kichik "<" va katta ">" belgilar orasiga yoziladi. Unda hamisha boshlovchi va tugovchi taglar mavjud. Tugovchi tag boshlovchi tagga o'xshagan bo'ladi faqat oldida "/" oldinga og'gan tayoqcha belgisi bo'ladi, ya'ni <html>...</html>.

Taglarning vazifasi:

- har qanday buyruq taglar orqali beriladi, boshlovchi va tugovchi taglar orasidagi ma'lumot tagning turiga qarab funktsiya bajaradi.
- har bir tagning o'z vazifasi va ishlatilish qoidalari bordir.
- taglarning bir o'zi yordamchi atributlarsiz uncha ko'p ishni bajara olishmaydi.
- taglar ikki hil bo'ladi: ikkitalik va bittalik taglar
- bir nechta taglar bir birining orasida kelishi mumkindir.
- Muhim qolida: birinchi kiritilgan tag, taglar orasida so'nggi bo'lib yopiladi.

Masalan:

```
<html>
<head><title>Bu Yerda Web Sahifa Nomi Bo'ladi</title></head>
</html>
```

Qoidaga binoan <html> tagi o'zidan keyingi taglardan birinchi bo'lib kiritildi, va so'ngisi bo'lib yopildi, <head> tagi esa <title> tagidan oldin ochildi va </title> dan keyin yopiladi. Chunki ochish-yopish taglari "faqat uning orasidagi jumlanigina ol" deb buyruq bergandek gap. Yanayam tushunarliroq bo'lishi uchun matematika darsidagi qavslarni eslang, ularga o'xshab ketadi.

```
<html>
<head>
<title>2 - Dars </title>
</head>
```

```
<body>
<p>Kodlarimizning asosiy qismi.</p>
</body>
</html>
```

Bittalik taglar

Ba'zi taglar bitta holda keladi, masalan `
` - "break" deganidir ular "`<`" bilan ochiladi va so'ngida bitta joy (пробелъ) tashlanib "`>`" bilan yopiladi. Ochiluvchi `<` va yopiluvchi `>` taglarning vazifalaridan biri orasida biron ma'lumot olib kelishdir, bittalik taglarda esa orasida hech qanday ma'lumot kelishiga hojat yo'q shuning uchun ular bittalik hisoblanadi. Quyida shunga o'xshash ba'zi misollarni beraman lekin bu taglarning vazifalariga keyinroq to'htalamiz.

`
`, `<hr />`, `<basefont />`, `<input />` va hokazo.

Eslatma:

Eslatib o'taman, ba'zi taglar hamma browserda ham bir hildagidek ishlamaydi, yani sizni ba'zi kodingiz "Opera"da ishlab "Internet Explorer"da ishlamasligi mumkin yoki aksincha, lekin bunday taglar juda ko'p emas va boshqa yechimlari bor, kelgusi darslarda batafsilroq tushunamiz ular haqida.

Endi boshqa tez-tez ishlatiladigan eng sodda taglar haqida tushuncha berishni boshlaymiz, bu taglar 4-Darsda batafsil tushuntirilgandir.

HTML tilining taglari quyidagi 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval

HTML taglari	Misol	Tarif
<code></code>	<code>Misol uchun</code>	bu tag orasidagi har qanday matn odatdagidan ko'ra qalinroq shaklda yoziladi. (boldface-qalinroq)
<code><big></big></code>	<code><big>Misol uchun</big></code>	bu tag orasidagi har qanday matn odatdagidan ko'ra kattaroq shaklda yoziladi. (big-katta)
<code>
</code>	<code>
Misol uchun</code>	bu tag bittalik tag hisoblanadi klaviaturadagi "ENTER" vazifasini bajaradi, kichik " <code><</code> " belgisidan so'ng " <code>br</code> " yozib

		bitta joy tashlab ">" bilan yopiladi, hamma bittalik taglar shundoq ochiladi va yopiladi. dan so'ngi har qanday text keyingi yangi qatorga o'tadi. (break-ajratish)
<center><center>	<center>Misol uchun</center>	bu tag orasidagi har qanday text web sahifaning markazida paydo bo'ladi. (center-markaz)
<cite></cite>	<cite>Misol uchun</cite>	bir nechta shunga o'xshash taglar matnning turini o'zgartiradi. Bu tag "cite" matn turining nomlanishidir, orasidagi har qanday text web sahifada cite teksti shaklida paydo bo'ladi. (cite-misol keltirish)
<code></code>	<code>Misol uchun</code>	bu tag orasidagi matn kompyuter kodi shaklida yoziladi. (code-kod)
	Misol uchun	bu tag orasidagi har qanday matn o'ng tarafga og'gan shaklda paydo bo'ladi. (emphasize - urg'u berish)
<h1></h1>	<h1>Misol uchun</h1>	Bu tag asosan sarlavhalar uchun ishlatiladi "<h1>" eng kattasi hisoblanadi, (heading-sarlavha). Hamma <h> lar odatdagidan qalinroq shaklda yoziladi.
<h2></h2>	<h2>Misol uchun </h2>	Bu tag ham asosan sarlavhalar uchun ishlatiladi "<h2>", <h1>dan kichikroq fontda yoziladi.
<h3></h3>	<h3>Misol uchun</h3>	Bu tag ham asosan sarlavhalar uchun ishlatiladi "<h3>", <h2> va <h1>dan kichikroq fontda yoziladi.
<h4></h4>	<h4>Misol uchun</h4>	Bu tag ham asosan sarlavhalar uchun ishlatiladi "<h4>", <h3>, <h2> va <h1>dan kichikroq fontda yoziladi. Odatiy yozuv kattaligiga yaqinroq yozuv.
<h5></h5>	<h5>Misol uchun</h5>	Odatiy yozuvdan kichik fondagi <h5> va <h6> lar unchalik sarlavhalar uchun ishlatililmaydi. "<h5>", <h4>, <h3>, <h2>, va <h1> lardan ancha kichik fontdir.
<h6></h6>	<h6>Misol uchun </h6>	<h6> eng kichik heading hisoblaniladi undan kichigi yo'q.
<hr />	Misol uchun<hr />	bu tag yozilgan joyda web sahifada to'g'ri chiziq paydo bo'ladi. Bu ham bittalik tag hisoblanadi. (Horizontal rule - gorizantal chiziq)
<i></i>	<i>Misol uchun </i>	bu tag tagi bilan bir hil lekin hamma browser ham o'qiyvermaydi, ni deyarli hamma browser lar qo'llaydi (italics-kursiv yozuv)
<kbd></kbd>	<kbd>Misol uchun </kbd>	bu tag o'ziga hos yozuvni keltirib chiqaradi kbd - keyboard deganidir.
<p></p>	<p>Misol uchun </p>	Bu tag paragraph deganidir undan keyingi jumla yangi abzastdan boshlanadi. (paragraph-abzast)

<pre></pre>	<pre>Misol uchun</pre>	HTMLda klaviatura buyruqlarini shunchaki ishlatish bilan hech qanday natajaga erishilmaydi, masalan enter bosganiz bilan yozmasez web sahifezda so'zlar bir qatorda tizilib turaveradi, "spacebar" yordamida bir so'z bilan ikkinchisi orasini ming katta qiling joy tashlash orqali lekin " " yozmasez ikki so'z yomna yon yozilaveradi. Lekin bu tag orasida har qanday klaviatura buyruqlari o'z ijrosida qoladi.
<samp></sampp>	<samp>Misol uchun</sampp>	Samp bu sample degani bo'lib badiiy yozuv turlaridan biri. (sample-namuna)
<small></small>	<small>Misol uchun</small>	bu tag orasidai har qanday matn odatdagidan ko'ra kichikroq shaklda yoziladi. (small-kichik)
<strike></strike>	<strike>Misol uchun</strike>	bu tag orasidagi har qanday so'z markazidan bir chiziq tortilgan bo'ladi. (strike-chiziq)
	Misol uchun	bu tag tagi bilan bir hil ma'noga ega lekin tagini ko'p browserlar yaxshi o'qiydi. (strong-qalin)
	Misol _{uchun}	bu tag orasidagi so'z yoki harf odatdagidan ko'ra pastroqda joylashgan bo'ladi, huddi H2O ga o'xshab. (subscript-quyi yozuv)
	^{Misol uchun}	bu tag orasidagi so'z yoki harf odatdagidan ko'ra teparoqda joylashgan bo'ladi, huddi x2 ga o'xshab. (superscript-yuqori yozuv)
<tt></tt>	<tt>Misol uchun </tt>	bu bir font turi bo'lib nomi teletype deyiladi. (teletype - teleyozuv)
<u></u>	<u>Misol uchun </u>	bu tag orasidagi jumlar ostida bir chiziq tortilgan bo'ladi. (underline-ostiga chizish)
<var></var>	<var>Misol uchun </var>	bu fontning nomi variable deyiladi. (variable-o'zgaruvchan)

Attributelar

Attribute- bu aksariyat taglarga qo'shimcha ravishda ishlatiladigan buyruqlar hisoblanadi, o'qilishi atribyut va HTML kodlarida juda katta ahamiyatga ega. Ular taglar emas, taglardan juda farq qiladi chunki ular muayyan bir tag uchun yordamchi vazifasini o'taydi va ochiluvchi tagning ichida keladi. Masalan: <body> tagini olaylik, bu HTML dokumentimizning asosiy qismi hisoblanadi, shuning uchun bu tagning attributelari yordamida butun dokumentimizning matn hajmini hammasiga umumiy qilib bittada kiritib olishimiz mumkin. Yoki bo'lmasam butun web sahifamizning orqa fonini o'zgartirishimiz mumkin har hil ranglarga. Buning uchun yuqorida kiritgan kodlaringizga qayting, bgcolor="yellow" so'zini <body> tag ichiga bitta joy tashlab (prabel tashlab) kiriting, u quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi kerak: <body bgcolor="yellow">, keyin CTRL+S yoki File - Save orqali dokumentni saqlang. Endi Shu NotePad dokumetizni qayerga saqlagan bo'lsangiz o'sha yerdan topib Internet browserlaridan birida ochib ko'ring. Sizning butun web sahifangiz sariq rangda bo'ladi (yellow-sariq). Bu yerda "yellow" so'zi "bgcolor" attributi qabul qilishi mumkin bo'lgan **qiymat** hisoblanadi. Barcha ingliz tilidagi ranglar "bgcolor" attributi qiymati bo'la oladi. Ranglar haqida to'liq keyingi darslarimizda uchrashamiz. Attribute so'zining lug'aviy ma'nosi "hossa", "hususiyat", "belgi" degan tarjimalarga ega. Hamma attributelar biron bir muayyan tagning ochilish qismi ichida keladi, va undan so'ng "=" belgisi bo'lishi shart, keyin esa yoki bittalik ('_') yoki ikkitalik ("_") qo'shtirnoq shart bo'ladi.

Attribute oltin qoidalari:

- Hamisha ochiluvchi (<_>) tag ichida tagning o'zidan keyin bitta joy tashlangan holda keladi, ya'ni "<body>" HTML dokumenti asosiy qismining tagi hisoblanadi, u qabul qilishi mumkin bo'lgan "bgcolor" attribute <body bgcolor="yellow"> sifatida keladi.
- Faqatgina qaysi tag ichida kelsa o'sha tagga tegishli malumotlar uchun o'z vazifasini o'taydi, masalan: <p align="center" >**kitoblar**</p> ushbu "kitoblar" so'zi yangi abzastda kelishiga <p> tagi orqali buyruq berilyapti, **align="center"** esa faqatgina "kitoblar" so'zini web sahifa marqazida joylashga

buyruq beryapti va</p> orqali bu abzast tugatilyapti shuning uchu </p> dan keyin keladigan so'zlar uchun markazda kelish buyrug'i o'rinli emasdir.

- HTMLda yuzlab taglar mavjud va bu taglarning hammasi ham atributelar bilan kelavermaydi, bir o'zi keladigan taglar ham bor.
- HTMLda hamma taglarning o'z atributelari bor, bir tagning atributi boshqa bir tag uchun o'rinli bo'lmasligi mumkin, masalan `<p bgcolor="yellow">kitoblar</p>` umuman ma'noga ega emas, chunki "bgcolor" <p>ning atributi hisoblanmaydi.
- Biroq `align="center"<p>` dan tashqari boshqa taglar uchun ham hizmat qilishi mumkin, masalan `<h1 align="center">kitoblar</h1>`
- Barcha attribute o'z qiymatiga ega, va bu qiymatlar attributedan so'ng "=" (tenglik) belgisidan keyin qo'shtirnoq ichida kelishi shart. Yuqoridagi misolga qaytadigan bo'lsak `<p align="center" >`, `align` attribute `center` uning qiymati va qo'shtirnoq ichida kelyapti.
- Bitta atributening har hil qiymatlari bo'lishi mumkin, masalan `<p align="center" >kitoblar</p>`da "center" o'rniga "left" yoki "right" qiymatlarini qo'ysa ham boladi, unda mos ravishda "kitoblar" so'zi web sahifamizning chap yoki o'ng tarafida paydo bo'ladi.
- Attribute turiga qarab uning qaiymatlari har hil bo'lishi mumkin, masalan `align` atributi center/left/right/justify qiymatlarini qabul qilsa, `bgcolor` faqat ranglarni qabul qiladi,`align` atributining qiymati sifatida ranglar yozilsa natija chiqmaydi, yoki aksincha `bgcolor` ning qiymati center/left/right/justify lardan biri bo'la olmaydi.
- Aksariyat (hammasi emas) atributlar birdaniga ikkita yoki undan ko'p qiymat qabul qilmaydi, yani `align="center, left"` deb yozish mutlaqo mumkin emas. Lekin `` desa bo'ladi, shunda agar browser "arial" ni qo'llasa matnimiz arial da paydo bo'ladi agar qo'llamasa "times new roman" ni o'qiydi.
- Bitta tagning bir nechta atributelari bo'ladi va bu atributelar hammasi ochiluvchi tag ichida keladi, orasida vergul shart emas masalan: `<body`

bgcolor="yellow" text="black"> bu yerda web sahifa orqa foni (yellow) sariq matnlar esa (black) qora rangda bo'lishiga buyruq berilyapti. Attributelar faqat kerak bo'lgandagina qo'llaniladi.

- Bir hil attribute bitta tag ichiga 2 marta yozilmaydi, har hil qiymatlarni olsa ham, yani **<p align="center", align="left">kitoblar</p>** deb yozish mutlaqo mumkin emas.

<body>...</body>

Bu tag oldingi darsda ta'kidlab o'tganimdek HTML dokumentimizning eng asosiy qismi hisoblanadi, web sahifada paydo bo'ladigan deyarli hamma yozuvlar, rasmlar, hammasi shu tag orasida birlashtiriladi. Bu tagning orasida aksariyat taglarimiz keladi, albatta taglarimiz web sahifada ko'rinmaydi, taglar shunchki web sahifada matnimiz qanday ko'rinishga ega bo'lishiga buyruq beradi.

Foydalanish qoidalari:

- ko'pincha </head> tagi yopilgandan keyin <body> tagi ochiladi, va</html> tagi yopilishidan oldin </body> tagi yopiladi.
- bu tag atributelari butun bir web sahifa uchun tegishlidir.

Attributelari haqida:

- **alink=""** - active link deganidir, ya'ni sichqoncha ustiga olib borilganda kirish mumkinligini ko'rsatadi va oddiy link rangi o'zgaradi, bu attribute ranglarni o'z qiymati sifatida qabul qiladi hamma faol link rangini belgilaydi (link- boshqa sahifaga bog'anuvchi yo'l ular haqida kelgusi darslarimizda). **<body alink="orange">** deb yozilsa, web sahifamizdagi barcha kirish mumkin bo'lgan link rangini sichqoncha ustiga olib borilganda orange qilib belgilanadi, linklar yaratish kelgusi darslarda.
- Masalan: **[Bu linkga kiring](#)** Ushbu link HTML kodi: **<body alink="orange" link="red" >**
- **background=""** - bu attribute web sahifamizning orqa foniga rasm qo'yish uchun ishlatiladi, qo'shtirnoq ichiga rasm manzili ko'rsatilishi kerak bo'ladi agar rasm web sahifangiz bilan bitta papka ichida joylashgan bo'lsa u holda rasmning nomini uning formati (jpeg, jpg, png, gif, ...) bilan yozishingiz

kifoyadir. Sizlarga hamma web sahifa uchun ishlatadigan rasmlaru fayllarni bitta papkada web sahifaning o'zi bilan saqlashilarni maslahat beraman, chunki boshqa papkadagi rasmlarni joyi o'zgarsa sizni web sahifangizdagi rasm yo'q bo'ladi, chunki siz yozgan manzildan o'sha rasmni HTML dastur yuklash uchun topa olmaydi. Quyida ikkala usul ham ko'rsatilingandir.

- 1-usul: boshqa papkadan joyash, u holda rasm manzili nomi bilan to'liq yozilishi shart bo'ladi. Masalan: `<body background="D:\web site\background images\orqafon.jpg">`
- 2-usul: rasmimiz web sahifa saqlangan joyda saqlansa unda rasm nomi formati bilan yoziladi: Masalan: `<body background="orqafon2.jpg">`
- **bgcolor=" "** - bu attribute esa web sahifamizning butun bir orqa fonini rangini o'zgartiradi. Qo'shtirnoq ichiga ixtiyoriy rang ingliz tilida kiritiladi.
- **bottommargin=" "** - web sahifamiz quyi qismidan joy tashlash uchun ishlatiladi, bu attribute qiymati pixelda sonlar bilan belgilanadi, agar bu attribute yordamida web sahifamiz quyi qismidan joy tashlanmasa yozgan matnlarimiz web browserda quyi qismiga yopishgan holda paydo bo'ladi (bottom-quyi; margin-joy tashlash).
- **bgproperties="fixed"** - bu attribute bizga `<body background=" ">` yordamida o'rnatgan orqa fonimizni web sahifa tepa va pastga sichqoncha roligi yordamida harakatlansa ham uning orqasidagi fonni harakatsiz holatga keltiradi, "fixed" qiymati o'zgarmasdir.
- **leftmargin=" "** - web sahifamiz chap qismidan joy tashlash uchun ishlatiladi, bu attribute qiymati ham pixelda sonlar bilan belgilanadi, agar bu attribute yordamida web sahifamiz chap qismidan joy tashlanmasa yozgan matnlarimiz web browserda chap qismiga yopishgan holda paydo bo'ladi (left-chap; margin-joy tashlash).
- **link=" "** - Link deganidir, bu barcha hali foydalanuvchi tamonidan tashrif buyurilmagan linklarning rangini belgilaydi, tashrif buyurilmagan deganimning sababi tashrif buyurilgan linklarni boshqa rangda belgilash

mumkindir. Yuqoridagi (alink) misolda birinchi ko'rinib turgan qizil rang haqiqiy link rangidir.

- **rightmargin=" "** - web sahifamiz o'ng qismidan joy tashlash uchun ishlatiladi, agar bu attribute yordamida web sahifamiz o'ng qismidan joy tashlanmasa yozgan matnlarimiz web browserda o'ng qismiga yopishgan holda paydo bo'ladi, qiymati pixeldir (right-o'ng; margin-joy tashlash).
- **text=" "** - butun bir web sahifamizning matn rangini o'zgartiradi, qiymati istalgan rang ingliz tilida yozilsa bo'lgani.
- **topmargin=" "** - web sahifamiz yuqori qismidan joy tashlash uchun ishlatiladi, agar bu attribute yordamida web sahifamiz yuqori qismidan joy tashlanmasa yozgan matnlarimiz web browserda yuqori qismiga yopishgan holda paydo bo'ladi (bottom-quyi; margin-joy tashlash).
- **vlink=" "** - visited link deganidir, yani foydalanuvchi tashrif buyurgan link bu attribute tashrif buyurilgan linkning rangini o'zgartirish uchun qo'llaniladi.

Ro'yhat tuzish

Ro'yhat tuzish matnimizning muhim qismlaridan biri hisoblanadi, va ular uch turdan iboratdir. Ro'yhatimiz Nuqtali bo'lishi, Son tartibda bo'lishi yoki umuman nuqtali ham sonli ham bo'lmasligi mumkin. Bu uchalasining ingliz tilida nomlanishining bosh harflari ularga tag sifatida olingandir va hamasining ochilish va yopilish taglari mavjud. Hammasi atributelarga egadir.

- **Unordered List (UL)** - Tartib raqamlarsiz beriladigan ro'yhat.
- **Ordered List (OL)** - Tartib raqamlar bilan beriladigan ro'yhat.
- **Definition List (DL)** - Ta'rif beriladigan ro'yhat.

Ro'yhat qilishga misol sifatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin.

<ul style="list-style-type: none">• Matematika• Fizika• Tarih• Ona tili	<ul style="list-style-type: none">○ Matematika○ Fizika○ Tarih○ Ona tili	<ul style="list-style-type: none">▪ Matematika▪ Fizika▪ Tarih▪ Ona tili
--	--	--

• Adabiyot	○ Adabiyot	▪ Adabiyot
• Rus tili	○ Rus tili	▪ Rus tili
• Ingiliz tili	○ Ingiliz tili	▪ Ingiliz tili
• Fransuz tili	○ Fransuz tili	▪ Fransuz tili
• va hokazolar	○ va hokazolar	▪ va hokazolar

Forma yaratish

<form>...</form>

Hammaniz biron bir forma turiga internetda ko'p duch kelganmiz, hech bo'lmasa email ochganda bir talay o'zimiz haqimizda ma'lumotlarni mahsus katakchalarga to'ldirib chiqqanmiz. Bu galgi darsimiz ana shunday formalarni Web sahifangizda yaratish va unga tashrif buyuruvchilarning to'ldirib sizga ma'lumotlarni avtomatik tarzda yuborishini o'rganamiz. Forma yaratish uchun <form> tagini ishlatishimizga to'g'ri keadi. <form> ochilish, </form> esa formamizni yopish demakdir. Bu tagning mahsus atributelari bor. Shu yerda bir maslahatim, formlarni web sahifangizda juda ko'p ishlatishingiz web sahifa foydalanuvchisiga yoqmasigi mumkin shuning uchun kamroq ishlatting. Shaxsan men forma to'ldirishni uncha yoqtirmiman.

Foydalanish qoidalari:

- <form> asosan ma'lum bir maqsadda web sahifa foydalanuvchilaridan email orgali ma'lumot olish uchun ishlatiladi.
- ochilishi va yopilishi shart, atributelarsiz hech qanday ma'noga ega emas.
- <form>...</form> ichida asosan <input /> tagi matn yozish uchun katakchalar va ma'lumot jo'natish yoki boshqa maqsadda tugmachalar yaratish uchun ishlatiladi.
- <input /> tagi o'z atributelariga egadir va atributelarsiz hech qanday ma'noga ega emas.

Atributelari haqida:

- **method=" "** - bu attribute qiymatlari "post" va "get" dir, va asosan "post" qiymatini ishlatgandagina method atributi ishlatiladi chunki method ishlatmasak u get deganidir.

- `<form method="post">` - sizga to'ldirilgan ma'lumotlarni email sifatida jo'natishi uchun buyruqdir.
- `<form method="get">` - limit, default
- **action=""** - qiymati biron bir web sahifaga link yoki email adres oldida mailto: bilan masalan
 - `<form method="post" action="http://www.yahoo.com">`
 - `<form method="post" action="mailto: buckylee@mail.ru">`
 -

name="" - sizni web sahifangizga kirib keladigan ma'lumot uchun nom, istalgan qiymat bo'lishi mumkin.

<input />

Bu tag bittalik tag hisoblanadi va formamizni yaratishda juda katta ahamiyatga ega, input-kiritish degan tarjimaga ega. `<form>` tagi yordamchi `<input />` tagisiz hech qanday amalni bajara olmaydi.

Foydalanish qoidalari:

- har bir ma'lumot katagi uchun bitta alohida `<input />` tagi ishlatiladi.
- bu tag nechta bo'lsa ham `<form>...</form>` tagi orasida keladi.

```
○ <form method="post" action="mailto: buckylee@mail.ru">
  <input type="text" />
</form>
```

- o'z atributlariga ega va ularsiz hech qanday ma'noga ega emas.
- **name=""** atributi hamma `<input name="biror_so'z" />` tagi ichida kelishi shartdir, **type=""** atributini yozishdan oldin yoki keyin o'zizga darhol **name=""** atributini yozishni odat qilib oling.

Atributelari haqida:

- **accept=""** - bu attribute web sahifangizga foydalanuvchi tamonidan biron file yoki dokument yuklashda uning aynan qaysi turdagi dokumentni qabul qilishi mumkinligini ko'rsatadi, va **type="file"** atributi bilan hamisha birga keldi. Agar birdan ortiq turdagi filelarni qabul qilishini hohlasangiz uning qiymatlarini qo'shtirnoq ichida vergul bilan yozishingiz mumkin, masalan:

```
<input type="file" name="foydalanuvchidan_file"
```

accept="application/msexcel, application/msword, application/pdf" /> bu holatda foydalanuvchi sizning web sahifangizga yuklashi mumkin bo'lgan dokument turlari faqat "MS Excel", "MS Word" yoki "PDF" format bo'lishi mumkinligini ko'rsatyapti.

- o **accept="application/msexcel"** - faqat MS Excel turidagi dokumentlarni qabul qiladi.

Jadval haqida.

```
<table>...</table>
```

table -jadval degan tarjimaga egadir, har hil turdagi jadvallarni tuzishda ishlatiladi. Jadvallarga turli hil ishlov berishimiz imkoniyati bordir, quyida <table>...</table> tagining atributelri yordamida butun bir jadvalimizga ishlov berishimiz mumkin. <table> tagining barcha atributelari butun bir jadvalimizga tegishli bo'ladi. Quyidagi jadvallarning misollarida biron farq yoki o'zgarish sezmasangiz har hil browserlarda ochib ko'ring chunki bir browser qo'llab quvattlagan atributeni ikkinchisi umuman o'qimasligi mumkin.

Foydalanish qoidalari:

- ochilishi va yopilishi shart
- hamma atributelari butun bir jadvalga tegishli bo'ladi.
- yordamchi taglari hammasi orasida keladi.

Eng asosiy atributelari:

- **align=" "** - Jadvalimizni web sahifamizda joylashuv o'rnini belgilaydi.
align="center" - jadvalimizni web sahifa markaziga joylaydi. HTML kodi: <table align="center" width="340" border="1" cellspacing="0" cellpadding="0">

Dars Jadvali		
	Dushanba	Seshanba
8:00-9:30	Tarih	Ingiliz tili
10:00-11:30	Fizika	Matematika

12:00-13:30	Ona-Tili	Geometriya
-------------	----------	------------

CSS – Cascading Style Sheets³

CSS – kaskadli stillar jadvali bo'lib, HTML sahifalarga stil berish uchun qo'llaniladi. Unda asosan, matnlarning qalingili, qanday oraliqlarda yozilishi, qanday shrift qo'llash kerakligi, matnning qanday ranglarda chiqish, elementlarning qanday holatda joylashish, orqa fon rangi kabi ishlar amalga oshiriladi.

HTML teglariga CSS ni yuklash uchun 3 xil usuldan foydalaniladi:

- CLASS atributi yordamida
- ID attribute yordamida
- TEG nomi bilan

CSS ni HTML ga yuklash uchun <LINK> tegidan foydalaniladi.

<link rel="stylesheet" type="text/css" href="css fayl">

JavaScript dasturlash tili⁴

JavaScript ham HTML bilan birgalikda qo'llanilib, asosan u client tarafdagi xatoliklarni oldini olish, formani to'g'ri to'ldirilganligini aniqlash, sahifadagi o'zgarishlarni client tarafdin boshqarish uchun ishlatiladi.

HTML ga JavaScript ni yuklash uchun <SCRIPT> tegidan foydalaniladi.

<script type="text/javascript" src="js fayl"></script>

JavaScript ning ayrim funksiya va obyektlari browser turiga qarab farqalanishi mumkin. Ya'ni har bir browser o'ziga yarasha imkoniyatlar kiritgan JavaScriptga.

PHP web dasturlash tili (server site script)

PHP (PHP: Hypertext Preprocessor) – PHP: Gipermatn preprotssori. PHP (Personal Home Page Tools) – Shaxsiy web sayt yaratish instrumenti. PHP tili open source bo'lib, PHP License asosida tekin tarqatiladi.

PHP tarixi

³ <http://ru.wikipedia.org/wiki/CSS> web sahifasi.

⁴ Николенко Д. В. Практические занятия по JavaScript: для начинающих

1994 – yilda Daniyalik dasturchi Rasmus Lerdorf Perl/CGI da HTML hujjatlarni qayta ishlab chiqaruvchi script to'plamini yaratdi. U bu to'plamni **Personal Home Page** (Shaxshiy bosh sahifa) deb nomladi. Keyinchalik C tilida PHP/FI andozasini yaratdi.

1997 – yilda PHP/FI 2.0 yaratildi. Shu paytlarda bundan 1% (taxminan 50 mingta domenda foydalanishgan)

PHP 3.0 ga kelib ancha o'zgarish namoyon bo'ldi. Bunda ulardan asosiysi yadroda qo'shimcha modul qo'shim kengaytirish imkoni bo'lganligidir. Yana ma'lumotlar bazasi va protokollar bilan ishlash uchun API funksiyalarining qo'shilganligidir.

1988 – yil qishida Zeev Suraski va Andi Gutmans PHP yadrisini qayta tuzishni boshlashdi. Uni **Zend Engine** deb nomlashdi va u 1999 – yil o'rtalida chiqarildi. 200 – yil mayga kelib PHP 4.0 chiqarildi. Unda sessiya, bufferlash kabi qo'shimchalar qo'shilgandi.

2004 – yil 13 – iyulga kelib PHP 5 chiqarildi. Uning yadrosi **Zend (Zend Engine 2)** ga qayta ishlangandi. Unda XML bilan ishlash imkoniyati, OOD (Obyektga yo'naltirilgan dasturlash, OOP), bir qancha modullar qo'shilgandi.

2006 – yil oktyabridan boshlab PHP 6 yozilishi boshlandi. Unda *php.ini* dan *safe_mode*, *magic_quotes_gpc* va *register_globals* olib tashlanadi. Va shunga o'xshash bir qancha o'zgarishlani o'z ichiga oladi.⁵

1.3. Masalaning qo'yilishi

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi “ARIGTS SAVDO” MCHJ web saytini yaratishdan iborat. Ushbu web sayt dinamik ko'rinishda yaratilishi va foydalanuvchilar ushbu web sayt orqali “ARIGTS SAVDO” MCHJ firmasi haqida to'liq ma'lumot olishi lozim. O'z navbatida saytga kerakli ma'lumotlar jumladan, sayt yangiliklari, sahifa ma'lumotlari va boshqalarni administrator oynasi orqali yangilab borish imkoniyati bo'lishi kerak. Tizim quyidagi modullardan tashkil topadi:

Asosiy oyna

- Administrator oynasi
- Foydalanuvchilarni boshqarish
- Bog'lanish sahifasi
- Saytga tegishli boshqa sahifalar

2 - BOB. ASOSIY QISM

2.1. JOOMLA kontentlarni boshqarish tizimi


Kontentlarni boshqarish tizimlari (KBT) – bu axborot tizimlari va web saytlarni yaratish uchun tayyor tizim bo'lib, ushbu tizimlar orqali foydalanuvchi tayyor modullardan foydalangan holda web saytni tez va samarali yaratishi mumkin. Ushbu tizimlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin.

- JOOMLA
- Drupal
- WordPress
- Code Igniter
- Yii Framework

Bu tizimlarning bir – biridan farqi shundaki, foydalanish interfeysi va ma'lumotlar bazasiga murojaat qilish ketma-ketligidadir. Ushbu tizimlarning qulayligi shundan iboratki, tizimni yaratishda vaqt kam ketadi, tizimni yaratishda modulli dasturlash qo'llaniladi va tayyor shablonlarni ishlatish mumkin. Kachiligi esa tizimni yaratishda egiluvchanlik xususiyati yo'qligi va loyihani qo'yilgan talabga javob bera olmasligi mumkin. Quyida hozirgi kunda foydalanuvchilar tomonidan eng ko'p ishlatiladigan Joomla KBT ni ko'rib chiqamiz

Joomla yordamida maktab internati saytini tayyorlaymiz.


1. Joomla ni o'rnatish.



Joomla! 2.5.11 Установка Joomla!

Шаги

- 1: Выбор языка
- 2: Начальная проверка
- 3: Лицензия
- 4: Конфигурация БД
- 5: Конфигурация FTP
- 6: Конфигурация сайта
- 7: Завершение установки



Конфигурация базы данных

Назад Далее

Настройки подключения к базе данных

Joomla! хранит информацию сайта в базе данных. На этой странице вводится информация, необходимая для создания базы данных.

Если вы устанавливаете сайт на рабочем сервере в интернете, вам потребуются узнать параметры подключения у вашего хостера.

На некоторых хостингах требуется предварительно создать базу данных и только после этого начинать установку Joomla!. Если вы увидите сообщение "Не удалось подключиться к базе данных", убедитесь, что имя пользователя и пароль доступа к базе данных введены правильно. Если сообщение появится снова, уточните у хостера, не требуется ли на его сервере создать базу данных до установки Joomla!.

Основные установки

Тип базы данных *
 Это обычно "MySQL"

Имя сервера базы данных *
 Это обычно "localhost"

Имя пользователя *
 Введите имя пользователя базы данных, выданное хостером. На локальном сервере обычно используется учётная запись "root" без пароля.

Пароль
 Введите пароль пользователя MySQL. Не рекомендуется применять учётную запись без пароля.

Имя базы данных *
 На некоторых хостингах присутствует ограничение по количеству используемых баз данных. Использование префиксов таблиц позволяет установить несколько сайтов на Joomla! в одну базу данных.

Префикс таблиц *
 Укажите префикс таблиц или используйте автоматически сгенерированный. Рекомендуемая длина префикса: 3-4 символа (латинские буквы и цифры) и символ подчеркивания в конце. Убедитесь, что выбранный префикс не используется в именах существующих таблиц базы данных.


Действия с уже имеющимися таблицами *
 Переименовать Существующая резервная копия таблиц от предыдущей установки Joomla! будет заменена.
 Удалить

Joomla!® распространяется по лицензии GNU General Public License.

Joomla! 2.5.11 Установка Joomla!

Шаги

- 1: Выбор языка
- 2: Начальная проверка
- 3: Лицензия
- 4: Конфигурация БД
- 5: Конфигурация FTP
- 6: Конфигурация сайта
- 7: Завершение установки



Конфигурация сайта

Назад Далее

Название сайта

Введите название вашего сайта.

Дополнительно: вы так же можете указать мета-теги (Meta Description и Meta Keywords) для вашего сайта. Кроме того, вы можете выбрать, будет ли сайт доступен посетителям сразу после завершения установки или нет.

Основные установки

Название сайта *

[Расширенные настройки - Дополнительно](#)

E-mail и пароль администратора.

Введите e-mail адрес. Это будет e-mail адрес Суперадминистратора сайта.

